

YANGIQO'RG'ON SHEVASINING LEKSIK SEMATIK TARKIBI

Najmiddinova Gulbahor Olimjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20741408>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani shevasining leksik-semantik tarkibi oziq-ovqat nomlari misolida tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida shevada qo'llanadigan taom nomlari, ichimliklar, oziq-ovqat mahsulotlari, o'simliklar hamda ovqat tayyorlash jarayoniga oid leksik birliklar mavzuviy guruhlar asosida tahlil qilindi. Tahlil natijasida Yangiqo'rg'on shevasida qarluq va qipchoq lahjalariga xos bo'lgan ko'plab mahalliy so'zlar saqlanib qolgan.

Kalit so'z: Sheva, leksik, temin, lug'at, so'z, fonetik o'zgarish, Yangiqo'rg'on, oziq-ovqat nomlari, o'simliklar nomi.

Abstract: This article studies the lexical-semantic structure of the dialect of Yangikurgan district of Namangan region using the example of food names. During the study, the lexical units used in the dialect, including names of dishes, drinks, food products, plants, and the process of cooking, were analyzed based on thematic groups. As a result of the analysis, many local words characteristic of the Karluk and Kipchak dialects have been preserved in the Yangikurgan dialect.

Keywords: Dialect, lexical, vocabulary, word, phonetic change, Yangikurgan, food names, plant names.

Аннотация: В данной статье на примере названий продуктов питания изучается лексико-семантическая структура диалекта Янгикурганского района Наманганской области. В ходе исследования лексические единицы, используемые в диалекте, включая названия блюд, напитков, продуктов питания, растений и процесса приготовления пищи, анализировались по тематическим группам. В результате анализа было выявлено множество местных слов, характерных для карлукского и кипчакского диалектов, сохранившихся в янгикурганском диалекте.

Ключевые слова: Диалект, лексический, словарный запас, слово, фонетические изменения, Янгикурган, названия продуктов питания, названия растений.

O'zbek shevalari o'zining leksik tarkibi vao'ziga xos leksik xususiyatlari bilan o'zaro farqlanadi. O'zbek xalq shevalari leksikasini o'rganish bo'yicha muayyan ilmiy ishlar olib borilgan. Bu holat, avvalo, o'zbek xalq shevalari leksikasiga bag'ishlab turli davrlarda yaratilgan monografik tadqiqotlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, o'tgan asrning 70-yillarida T. Sodiqov, [1.1] O.To'raqulov, [2] N. Mirzayev, [3] M. Bo'ronov, [4] S. Rahimov, [5] E. Sheraliyev [6] tomonidan amalga oshirilgan izlanishlar bunga misol bo'la oladi. Shevalar leksikasining o'rganilganlik darajasi haqida so'z yuritilganda, ushbu sohada M. Saidova N. Shoimova hamda V. Alimbekovalar tomonidan bajarilgan ishlarni ham

alohida ta'kidlash lozim. Ajdodlarimizning ko'p asrlik ijodiy faolyati natijasida yaratilgan boy madaniy meros an'anaviy leksik qatlamlarni to'plash va tartibga solish, tilshunoslikda undan nazariy va amaliy jihatdan foydalanish adabiy til normalarini belgilashda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Akademik Sh. Shoabdurahmonov tilimizdagi leksik qatlamlarni jamlab borish va ularni ilmiy asosda tadqiq etish nihoyatda zarur ekanini ta'kidlab, shunday yozadi: Agar yaqin kelajakda o'zbek

an’anaviy leksikasi to’liq qayd etilmasa, barcha mas’uliyatni inobatga olgan holda aytish mumkinki, kekxa avlodning asta-sekin kamayib borishi bilan ularning xotirasida saqlanib, bizgacha yetib kelgan qimmatli til materiallarining bir qismi butunlay yo’qolib ketishi mumkin.[8.B-56,70]

O’zbek tilidagi kasb-hunar leksikasini yig’ishishiga dastlab taniqli tilshunos olim S. Ibrohimov kirishgan. U kundalik hayotdan asta-sekin yo’qolib borayotgan, ilgari yetarli darajada o’rganilmagan kasb-hunarga oid so’z va terminlarni to’plab, ularni lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilgan hamda maxsus lug’at tuzgan. Kasb-hunarga doir atamalar xalqning ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog’liq bo’lib, ular asrlar davomida mehnat jarayonida shakllangan va tajribada sinovdan o’tgan. Shu bois bunday birliklar xalqona, hayotiy va an’anaviy xususiyatlari bilan sheva leksikaning boshqa qatlamlaridan ajralib turadi. Ijtimoiy hayotga oidatamalar avlod-dan-avlodga og’zaki tarzda an’ana sifatida o’tib kelgan va keyingi avlodlar tomonidan ham amalda qo’llanib kelinmoqda. Shu jihatdan S. Ibrohimovning “kasb-hunar leksikasi insonlarning mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladi va umumxalq tilining muayyan qismini tashkil etadi” degan fikri nihoyatda asosli hisoblanadi. Xalqning kundalik turmushi bilan bevosita bog’liq bo’lgan sohalar — oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy va uy-ro’zg’or buyumlarini ifodalovchi nomlar nihoyatda boy va xilma-xildir. So’zlarni mavzuiy guruhlariga ajratish usuli aslida obyektiv, real olamda mavjud bo’lgan o’zaro aloqa va yaqinlik xususiyatlariga tayanadi. Bunda narsa va hodisalar o’rtasida o’xshashlik (predmetlilik) va asoslangan xususiyat asosiy ro’l o’ynaydi. Mavzuiy guruhlar usulining mohiyatini yanada konkretlashtirish bilan bog’liq ba’zi muammolar bor. Bular: mavzuiy tasnif usulini yanada takomillashtirish, mavzuiy guruhlarini nomlashni bir xillikka keltirish; so’zlarni u yoki bu guruhga kiritish mezonlarini yanada takomillashtirish va boshqalar. Biz Yangiqo’rg’on shevasi leksikasini mavzuiy guruhlariga bo’lishda quyidagi fikrlarga tayandik: So’zlarni tematik guruhlariga ajratish ularning ma’nosiga hamda nominatsion funksiyasiga ko’ra o’xshash guruhlariga jamlashni ko’zda tutdik. Demak, so’zlarning tematik kategoriyalari deganda bir umumiy mavzu, g’oya atrofida birlashgan (uyg’unlashgan) so’zlarni muayyan guruhlariga (mavzularga) jamlash tushuniladi. Namangan viloyati, xususan Yangiqo’rg’on tumani shevasi o’zining boy leksik tarkibi bilan ajralib turadi. Ushbu hududda qadimdan dehqonchilik, chorvachilik hamda bog’dorchilik rivojlanganligi isababli oziq-ovqat mahsulotlari va taom nomlari bilan bog’liq so’zlar juda keng tarqalgan. Bu birliklar nafaqat kundalik nutqda faol qo’llanadi, balki xalqning milliy madaniyati va urf-odatlarini ham aks ettiradi.

Yangiqo’rg’onda istiqomat qiluvchi aholi qarluq va qipchoq lahja vakillar inutqidan olingan quyidagi maishiy leksik birliklar tahlilga tortilganda, uning ko’p jihatlari o’rganish uchun ahamiyatga ega ekanligi, sheva hos bazi so’zlar adabiy tilda o’z maqomiga ega emasligi iyon bo’ldi. Yangiqo’rg’onda istiqomat qiluvchi aholining maishiy leksik qatlamini tahlil qilish uchun quyidagi guruglariga bo’ldik. Yangiqo’rg’onshevasi leksikasining mavzuiy guruhlar;

OZIQ-OVQAT NOMLARI

TAOM NOMLARI:

serdäk— ovqatning qaylasi. Asosan xamirli taomlar uchun tayyorlanadi.

goʻʻä— asosan, bug’doy yoki makkajo’xori yormasidan tayyorlanadigan, suzma bilan aralashtiriladigan an’anaviy quyuq taom yoki ichimlik.

pällä— sigir yangi tuqqan paytda og’iz sutidan tayyorlanadigan taom.

suzvāldi // xamirsāldi // kulçatāy // šilpildāq— hamma masallig’i qaynatilgan, suvda pishirilgan, xamirni kubik shaklida to’g’rab ustiga masalliq solib iste’mol qilinadigan quyuq taom *qātirma* — kartoshka va go’sht birga qoshib qovuriladigan quyuq taom,

manti—yupqa yoyilgan xamir ichiga qiyma(go'sht, piyoz, yog') solib, maxsus mantiqosqonda pishirilgan quyuq taom.

oroma manti — o'rab tayyorlanadigan manti turi, ya'ni xonim.

ätälä äš — suyuq, yog', un va suvdantayyorlanadigan taom.

laymān — cho'zma xamirli milliy taom.

čučvārā — yupqa qilib yoyilgan xamirga qiyma solib tugiladigan taom turi.

öjmā — (cho'zma, chalpak) xamirdan o'yib olingan yog'da pishirilgan bilyashdan katta nondan yupqa bo'lgan taom.

jupqā — yupqa xamirli non yoki qatlama, *qällämä*(qatlama) — qat-qat qilib pishirilgan taom.

čevāti — yog'siz o'yma. Xamirdan tayyorlanadigan va yog'da pishiriladigan taom.

sirgurič — sut va guruchdan, saryog'dan tayyorlanadigan taom

mästävā — guruchli sho'rva

šorvā — suyuq taom

xālvatjar — un, shakar, yog' va suvdan tayyorlangan taom

ura (ugra) — kesma lag'mon turi, suyuq taom

pijāz nān — non tarkibida piyoz va yog' mavjudbo'lib uni pechda pishiriladi

dimlāmā — sabzavot va go'shtni dimlab pishiriladigan taom

gālāpsā (dölma) — *karam bargiga o'ralgan taom*

qāzān sāmsā — qozonda pishiriladigan somsa

ālmā qand — olma va shakardan tayyorlangan shirinlik

qāzānkābāb — suyuq sho'rvaga o'xshagan taom

lāzā — pamidor, bulg'or, qalampir, piyoz, sarimsoq piyoz qo'shib tayyorlanadigan salatning bir turi, manti, somsa kabi taomlarga qo'shib istemol qilinadi

šākārāb — pomidor va piyozdan tayyorlangan salat

ICHIMLIK-LAR NOMI:

čāj – quritilgan barglardandamlab ichiladigan issiq ichimlik

daȳsuv – qaynatilgan suv

qāqurim – qatiq yoki suzmadan tayyorlangan ichimlik

pāmīl čāj – (qora choy) turli o'simliklardan damlangan shifobaxsh choy

šāptāli kāmpot – mevali yoki aralash ichimlik turi

zirā čāj – ko'rinishi ziraga o'xshash mayda bo'lgan choy

doyāb – qatiq yoki suzmaga gazlangan suv qo'shib tayyorlangan ichimlik

MAHSULOT VA O'SIMLIK-LAR:

sarjāy –sariyog'(sut mahsuloti)

toltā //doltā – qaymoq eritilgandan so'ng tagiga cho'kib qoladigan quyqasi

āq un – tozalangan bug'doy uni, birinchi nav,

qāra un – uchinchi nav un, tegirmonda tayyorlangan unga nisbatan ishlatiladi

kārtiškā – kartoshka

čisnok– sarimsoq, sarimsoqpiyoz

balgariskiy – bulgar qalampiri

pātinjān – pamidor: *Bāllā dālādān pātinjānā pkelišti.*

atom – qalampir: *Dedām āqātni atomsiz içmā:jdilā.*

āš kok – oshga solinadigan ko'kat turi (kashnich)

dumbul – makkajo'xorining pishib yetilmagan holati

ukrāp – ovqat uchun ishlatiladigan ko'katning turi(shivit)

kok pijāz – yerga tikilgan piyozdan olinadiganko‘kat
āt qulāq// ot qulāq – yovvoyi o‘simlik turi, odatda iste‘mol qilinadi
žay-žay – ismaloq
qizilča – lavlagi
kāvātāk// kāvātāk – uzumning bargi hamda shu bargdan tayyorlangan taomga nisbatan ham qo‘llanadi.
semiz o‘t – foydali dorivor o‘t
xamirturish – xamirni oshirish (achitqi) ko‘pgan xamir – achib ko‘tarilgan xamir
hulva (yalpiz) – yalpiz o‘simligi
miḡ tāmīr – dorivor o‘simlik
lula – dukkakli mahsulot (loviya).
OVQAT TAYYORLASHDA ISHLATILADIGANSO‘ZLAR:
ujutmāq – sutni ivitib qatiq qilish
raslamāq – xamirni yoyishga nisbatan ishlatiladi
bāsāllāmāq – yig‘ishtirish(oshxonani basalladi)
kujmāq// qujmāq – suvni quydi, ya‘ni harakat: *čājqujdi*,
toryamāq – mayda qilib kesish
ārčīmāq – tozalash (po‘stini olish)
dam jedirmāq – ovqatni yopib, dimlab pishirish
ijlamāq (xamir qormoq) – xamirni aralashtirib tayyorlash.

Xulosa qilib aytganda, Yangiqo‘rg‘on shevasida oziq-ovqat bilan bog‘liq leksik birliklar juda boy va xilma-xildir. Taom, ichimlik, mahsulot va ovqat tayyorlash jarayonlariga oid so‘zlar hudud aholisining turmush tarzi, urf-odatlarini hamda madaniyati bilan chambarchas bog‘liq. Tadqiqot natijasida shevada adabiy tilda kam qo‘llanadigan yoki umuman uchramaydigan ko‘plab mahalliy so‘zlar mavjudligi aniqlandi. Bu esa Yangiqo‘rg‘on shevasining o‘ziga xos leksik xususiyatlarini namoyon etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Содиқов Т. Тошкент области шеваларилексикаси: Филол. фанлари номзоди ... дис. Тошкент, 1968.
2. Тўрақулов О. Қўқон группа шеваларилексикаси: Филол. фанлари номзоди ... дис. Тошкент, 1976.
3. Мирзаев Н. Этнографическая лексика узбекского языка (на материале узбекских говоров Кашкадарьинской области): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1971.
4. Буранов М. Термины животноводства в узбекских говорах Каракалпакии: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1971.
5. Рахимов С. Лексика узбекских говоров Сурхандарьинской области: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1974.
6. Шералиев Э. Лексика узбекских говоров северо-восточного Таджикистана: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1974.
7. Шоимова Н. Ўрта Қашқадарё «же»ловчиқипчоқ шеваларилексикаси: Филол. фанларинормзоди дис. ... автореф. – Тошкент, 1999; Ўша муаллиф. Қашқадарё ўзбекқипчоқшевалари лексикаси. – Қарши: Насаф, 2000. – 34-93-бетлар.

8. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек халқшевалари. Тошкент, 1962, 325-бет.